

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASH
SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIKNI
QO'LLASH FAOLIYATI**

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 317-guruh kursanti
Masharipov Asqar Baxtiyor o`g`li*

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorining aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni qo'llash faoliyatini takomillashtirishning ilmiy - nazariy va metodologik asoslari, ushbu faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslari va ularning amaliyotdagi tahlili va ularga nisbatan rasmiylashtirilgan hujjatlar, shuningdek muammolar va kamchiliklar, hamda ularning bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar. Shuningdek, profilaktika inspektorining aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni qo'llash faoliyatini tashkil etish, hamda yuqorida keltirib o'tilgan jihatlardan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlar yoritib berildi.*

***Аннотация:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что научно-теоретические и методологические основы деятельности профилактического инспектора по применению административной ответственности за нарушения в сфере здравоохранения, правовые основы, регулирующие эту деятельность, и их анализ на практике и формализованных документах в отношении них, а также проблемы и недостатки, а также ряд предложений по их устранению. Также были освещены направления организации деятельности инспектора по профилактике применения административной ответственности за нарушения в сфере здравоохранения и совершенствования этой деятельности с использованием вышеуказанных аспектов.*

Aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hamda xavfsizligini ta'minlash masalalari birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilgan eng muhim va ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgan. Bunga birinchi Prezidentimiz tomonidan yozib qoldirilgan bir nechta asarlarni ya'ni, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", "Ona yurtimizning bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir" va shu kabi boshqa asarlari orqali, o'zbek halqiga shunday mustaqillikka erishish, uni butun dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini topishida hayotining so'ngiga qadar amalga oshirgan islohotlarida buni yaqqol misloni ko'rsak bo'ladi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ham ilk bor 2016 yil 4 dekabr' kuni Prezident etib tayinlanganlarida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov olib borgan islohotlarni davom ettirish maqsadida, halq manfaatlarini yo'lida, ularning dardu-g'ami, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy mafaatlari amalga oshirishda jamiyatning barcha jabxalarida

bir qator islohotlar olib borildi. Bevosita bu islohotlar Ichki ishlar organlarida ham amalga oshirildi. Chunki kekxa otaxonlarimiz, har doim duoga qo'l ochganlarida ollohdan sihat-salomatlik hamda yurt tinchligi yo'lida ezgu niyatlar bildiradilar. SHunday ekan birinchi navbatda yurtda tinchlik bo'lib halqimizning salomatligi bo'yicha hech qanday dardu g'amlari bo'lmasa, shunda halq davlatdan rozi bo'ladi hamda yurtda tinchlik farovonlik qaror topadi.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda oliy qadriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, yerkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari ta'minlanishini yanada mustahkam kafolatlash maqsadida, birinchidan, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini, barqaror taraqqiyotni ikkinchidan, Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo'nalishlari va prinsiplari hamda huquqiy maqomini aniq belgilashni uchinchidan, ularning faoliyatini yanada demokratlashtirish, ochiqlik va shaffofligini to'rtinchidan, tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy yetish va sohada boshqaruvni yanada modernizatsiyalashni beshinchidan, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlashni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2016 yil 16 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxsning qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tahdidlardan himoya qilish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. «O'zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lib qolishi darkor»

2014 yil 14 mayda O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari ko'rsatilgan bo'lib ular quyidagilardir:

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi; - huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi; - huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Biz o'rganilayotgan faoliyat aynan huquqbuzarliklar profilaktikasi turining biri bo'lib u huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidir.

Viktimologik profilaktika – bu jinoyat qurboni bo'lishni taqazo etuvchi sabab, sharoitlarni bartaraf etish, kuchsizlantirish, ularga to'siqlar qo'yish xamda o'zining xulq-atvori va xatti-harakati tufayli jinoyat qurboni bo'lishga moyil bo'lgan, shuningdek kasb, yoshi, jismoniy xolati ijtimoiy mavkei bilan bog'liq xolda viktimligi bo'lgan shaxslarga qaratilgan chora, tadbirlar tizimini amalga oshirish jarayonidir.

Tadqiqotlardan yana shu holat ma'lum bo'ldiki, jabrlanuvchilarga yetkazilayotgan tan jarohatlari yengil va sog'lig'ining qisman buzilishi bilan bog'liq holatlar - 38%, o'rtacha - 29%, og'ir holatlari - 21%ni tashkil etgan bo'lsa, faqat 12% holatda yengil tan jarohati sog'lig'ini

buzmagan holda sodir etilgan. Biroq hozirgi kunda asosan o'rtacha og'irlikdagi va og'ir tan jarohatlarining oshganligi kuzatilmoqda.

Tan jarohati yetkazish jinoyatlarini sodir etishda o'ta shafqatsizlik, rahmsizlik kabi holatlarning yuzaga kelishini ko'rish mumkin. Ya'ni, shaxsni turli usullar bilan qiynoqqa solish, masalan, tanaga qizib turgan cho'g'ni yoki dazmolni bosish, barmoqlarni atayin sindirish, hayot uchun xavfli bulgan usulda qattiq jismlar va sovuq kurollar bilan tan jarohati yetkazilishi va bu yetkazilgan tan jarohati natijasida shaxslarning bir umrga nogiron bo'lib qolishlari yoki xayotdan ko'z yumish holatlari kuzatilmoqda. Bunday tan jarohatlarini asosan aybdor shaxsga va uning oila a'zolariga (xotini, bolalari yoki boshqa yaqin qarindoshlariga nisbatan) alam, rashk yoki qasd olish ayrim hollarda boylik orttirish va shunga o'xshagan past maqsadlarda jabrlangan shaxslar tomonidan ham yetkazishi mumkin.

Profilakika inspektorining qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining viktimalogik profilaktikasi bshyicha faoliyati – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalar muayyan shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati tushuniladi.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, xususan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida“ notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, “ommaviy madaniyat“ta'siriga tushib qolgan yigitqizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalari mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilishva boshqa illatlar profilaktikasi“1 kabi dolzarb vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilg'or ish usullarini joriy etish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlashbo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik tashkil etishni taqozo etadi.

Shunday ekan mazkur jinoyatlarning oldini olish uning sodir yetilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadidi asosiy etiborni axolining oilaviy muammolariga qaratishimiz kerak.Ushbu xolatlarining oldini olish uchun maxsus chora tadbirlar ishlab chiqish lozim.Bunda asosiy etiborni davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan xamkorlik qilish orqali xonadonma-xonadon kirib ularning muammolari to'liq o'rganib chiqilib ularga amaliy yechim topishimiz zarur.

Negaki muxtaram yurtboshimiz SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek “fuqarolar xar bir ichki ishlar organlari xodimi siymosida o'z ximoyachisini ko'rishi kerak” yuqorida keltirib o'tilgan kamchilik va muammolar bartaraf etilmas ekan ushbu maqsadga erisha olmaymiz.

Jinoyatlarining potensial jabrlanuvchilari kiradi.

Individual va gruppaviy darajalardagi majburiy chora-tadbirlar jinoyat sodir etishga turtki beruvchi xulq-atvorli shaxslarga nisbatan zarur hollarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan



shakllarda huquqni muhofaza qilish organlarining nazorat faoliyatini ta'minlash uchun xizmat qilishi mumkin.

Tavsiyaviy ko'rinishdagi chora-tadbirlar zarur hollarda:

1) kasbiy va kundalik hayot faoliyatidagi shaxsiy xavfsizlikni ob'yektiv tarzda ta'minlashga qodir bo'lgan ba'zi bir axloq qoidalarini tushuntirish;

2) shaxslarga shaxsiy mol-mulkni o'g'rilar, talonchilar yoki firibgarlardan qanday asrash kerakligi haqidagi qoidalarni tushuntirish;

3) jinoyatchi bilan to'qnashgan hollarda oqilona harakat qilishlarini, jumladan, huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish lozimligini va tartibini tushuntirish uchun qo'llanilishi mumkin.